

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDAGI IJTIMOY MUAMMOLAR

Kurbanova Gulchehra Mo'minjon qizi

FDU Ijtimoiy ish yo'nalishi 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19405906>

Annotatsiya. Jamiyatimizda hozirgi kunda juda ko'plab yechim talab qiladigan global holatidagi muammolar mavjud. Shu nuqtayi nazardan men 3-7 yoshli bolalar tarbiyalanayotgan muhitga nazar tashladim. Holbuki, bu vaqt oralig'i butun bir insoniyatni hayoti poydevori sanaladi. Ushbu maqolada Quvasoy Shahar hududidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ijtimoiy muammolar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning psixologik holatlari, pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonlari hamda ularning kasbiy stressga bo'lgan moyillik holatlarini ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlari: Ijtimoiy muammolar, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, psixologik holat, pedagog, bilim, ko'nikma, jarayon, kasbiy stress, inson, poydevor, 3-7 yosh, global muammo, jamiyat, muhit.

Jamiyatimizda ayni vaqtda global muammolar talaygina. Lekin ular orasida ko'zga ko'rinarli va yechim topishga undaydigan muammolar ham yo'q emas. Qolaversa, insoniyat hayotining poydevori sanalmish maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhitlari, undagi ijtimoiy muammolari, psixologik atmosferasi, rahbarning boshqaruvchanlik qobiliyatlari, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari hozirda e'tiborga loyiqdir. Shu sababli ushbu maqolada yuqoridagi davlat tashkilotlaridagi va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ijtimoiy muhitni o'rganib, ulardagi kamchilik va qilinishi kerak bo'lgan amaliy ko'maklar yuzasidan fikr va mulohazalarni keltirib o'taman.

Yana bir e'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan masala bu maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarga nisbatan pedagoglar tomonidan qo'llanayotgan zo'ravonliklar, tazyiqlar hozirgi kunda juda ijtimoiylashib bormoqda. Achinarlisi bunday holatlar kundalik turmush tarzimizga aylanib, odatiy hol kabi ko'rinmoqda. Lekin bunday ruhiy zarbalar, ishonchsizlik, kabi salbiy holatlar tarbiyalanuvchi bolalarning kelajagiga travma ko'rinishida ta'sir etadi albatta. Shu sababli hozirgi davr jamiyatimizga ijtimoiy hodimlar, psixologlar o'z amaliy ahamiyatini ko'rsatadigan vaqtlar hisoblanadi. Kasb jihatidan qaraganimizda ijtimoiy hodimlar va psixologlar hozirgi kunda rivojlanib borayotgan kasblar sirasiga kira oladi deb bemalol ta'kidlab o'tamiz.

Ijtimoiy hodim (ijtimoiy xodim) vazifasi — bu jamiyatdagi muhtoj, himoyaga muhtoj yoki qiyin vaziyatga tushgan insonlarga yordam berish, ularning muammolarini hal qilishga ko'maklashishdir.

Ijtimoiy hodimning asosiy vazifalari:

1. Mijoz holatini o'rganish
 - insonning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik holatini tahlil qilish
 - muammo sabablarini aniqlash
2. Yordam rejasini tuzish
 - har bir mijoz uchun individual yondashuv
 - muammoni bosqichma-bosqich hal qilish rejasini ishlab chiqish
3. Amaliy yordam ko'rsatish
 - moddiy yoki ma'naviy yordam tashkil etish
 - kerakli tashkilotlarga yo'naltirish (tibbiyot, ta'lim, huquqiy yordam)

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash
 - suhbat orqali yordam berish
 - stress va muammolarni yengishda ko'maklashish
5. Huquqlarni himoya qilish
 - mijozning huquqlarini tushuntirish
 - zarur hollarda himoya qilish
6. Oila bilan ishlash
 - oilaviy muammolarni hal qilish
 - ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash
7. Hujjatlar bilan ishlash
 - hisobotlar yozish
 - mijoz ma'lumotlarini yuritish¹

Ana shu o'rinda ijtimoiy hodim agar maktabgacha ta'lim tashkilotida ijtimoiy hodim bo'lmasa mahalla ijtimoiy hodimi maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi bilan hamkorlikda u yerdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda amaliy yordamini ko'rsatishi lozimdir. Natijada biz nafaqat davlat tashkilotlarida balki butun jamiyatimizda quyidagi ijtimoiy muammolarni hal etishda birdamlik va yakdillikka erishamiz. Hozirda e'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan muammolardan biri bu tarbiyalanuvchilarga qo'llanilayotgan zo'ravonliklardir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi zo'ravonliklar- bu bolalarga nisbatan jismoniy, ruhiy va boshqa turdagi zarar yetkazuvchi harakatlar hisoblanadi.

Zo'ravonlikni bir qancha ko'rinishlarini ta'kidlab o'tishimiz joizdir.

Zo'ravonlik turlar:

1. Jismoniy zo'ravonlik
 - urish, turtish, jazolash
 - bolaning tanasiga zarar yetkazish
2. Psixologik (ruhiy) zo'ravonlik
 - haqorat qilish, qo'rqitish
 - kamsitish, mensimaslik
 - doimiy baqirish
3. E'tiborsizlik (neglect)
 - bolaga yetarli e'tibor bermaslik
 - ovqat, gigiyena, xavfsizlikni ta'minlamaslik.

Zo'ravonlik sabablari:

 - tarbiyachilarning stressi yoki malaka yetishmasligi
 - noto'g'ri tarbiya usullari
 - nazoratning sustligi
 - oiladagi muammolarni ish joyiga olib chiqish

Belgilari (bolada):

 - qo'rquv bog'chaga borishni hohlamaslik
 - yig'loqolik, tajovuzkorlik
 - tanasidagi ko'karishlar
 - nutq yoki xulqdagidagi o'zgarishlar

Oldini olish yo'llari:

 - tarbiyachilarni doimo o'qitish va nazorat qilish

¹ International Federation of Social Workers

- bolalar huquqlarini himoya qilish
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish
- bolaga mehribon va xavfsiz muhit yaratish

Har bir bola zo'rvonlikdan himoyalaniş huquqiga ega.²

WHO zo'rvonlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Bola sog'lig'i, rivoji, qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi har qanday harakat" - deb ta'kidlangan.

Bunga ko'ra zo'rvonlik oqibatlari:

- ruhiy travma
- depressiya va xavotir
- o'rganish qobiliyatining pastligi³

Har bir bola:

- zo'rvonlik va shavqatsizlikdan himoyalaniş huquqiga ega
- insoniy qadr-qimmat bilan muomila qilinishi kerak

Qonunga ko'ra:

- bolaga nisbatan har qanday zo'rvonlik ta'qiqlanadi
- bunday holat aniqlansa, javobgarlik mavjud⁴

Yuqorida zo'rvonlik nimaligi, ularning sabablari va oqibatlari yuzasidan bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tildi. Bu esa bizga bunday ijtimoiy muammoni qanday yechimini topish va bu yo'lda nimalarga va kimlarga e'tibor qaratishimiz kerakligini anglatib bormoqda. Shu yo'sinda bu muammoning ildizi hisoblangan pedagog tarbiyachilarga yuzlanamiz. Chunki bola bilan tarbiyachi kun davomida ota-onasidan ham ko'p vaqtini birga o'tkazadi. Tarbiyachining har qanday emotsiyalari, salbiy qarashlari, fikrlari, nigohlari, nutq ohangi ham bolaning psixologik hamda ijtimoiy adaptatsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir.

Ayniqsa tarbiyachida kasbga bo'lgan motivatsiyasi yetishmasligi, kasbiy so'nish holatlari bunday zo'rvonliklarga turtki bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari rahbariyat tomonidan beriladigan topshiriqlar, yozma hujjatlar ham ulardagi stressga sabab bo'lmoqda.

Ayniqsa tarbiyachilarning shaxsiy hayotidagi muammolarini ish jarayonlariga proyeksiya qilishi ham sabab bo'lmoqda. Bu yerdagi ijtimoiy hodimni yoki tashkilot psixologining vazifasi asosan tarbiyachi va uning muammolarini baholab diagnostika, korreksiya qilish ishlarini olib borish talab etiladi. Bu ham zo'rvonlikka qarshi qo'yilgan qadamlar sirasiga kiradi.

Tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi — bu tarbiyachining bolalar bilan samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuidir. Bu ayniqsa maktabgacha ta'limda juda muhim, chunki bu davr bola rivojining eng asosiy bosqichidir.⁵

Kasbiy kompetensiya tarkibi:

1. Pedagogik kompetensiya
 - ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish
 - dars (mashg'ulot)larni rejalashtirish
 - yosh xususiyatlarini hisobga olish
2. Psixologik kompetensiya
 - bolalarning ruhiy holatini tushunish

² UNICEF

³ World Health Organization

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni

⁵ Maktabgacha ta'lim vazirligi

- individual yondashuv
 - konfliktlarni to'g'ri hal qilish
 - 3. Metodik kompetensiya
 - zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
 - o'yin orqali o'qitish
 - innovatsion texnologiyalarni qo'llash
 - 4. Kommunikativ kompetensiya
 - bolalar bilan samimiy muloqot
 - ota-onalar bilan hamkorlik
 - jamoada ishlash qobiliyati
 - 5. Axloqiy (shaxsiy) kompetensiya
 - sabr-toqat
 - mehribonlik
 - adolatli va halol bo'lish
 - 6. Huquqiy kompetensiya
 - bolalar huquqlarini bilish
 - ta'limga oid qonun va me'yorlarni tushunish
- Nima uchun muhim?
- bola to'g'ri rivojlanadi
 - zo'ravonlik va noto'g'ri tarbiya oldi olinadi
 - sog'lom psixologik muhit yaratiladi
- Rivojlantirish yo'llari
- malaka oshirish kurslari
 - seminar va treninglar
 - o'z ustida ishlash (kitob, tajriba almashish)
 - zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish.⁶

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi holatlarni ham bartaraf etish lozimdir. Ya'ni har bir guruhda tarbiyalanuvchilar sonining ko'pligi. Bilamizki har bir guruhda 25-30 nafar bolalar tarbiyalanadi. Bu ham o'z navbatida tarbiyachidagi stressga, jismonan va fiziologik jihatdan ham abgor bo'lishga olib keladi. Natijada esa bolalarga nisbatan zo'ravonlikka duch kelamiz. Ayni vaqtda biz uchun zo'ravonlikka olib keluvchi har bir holatga e'tibor berishimiz kerak. Chunki ijtimoiy muammolar yechimida ana shu muammoni keltirib chiqaruvchi elementar sifatlar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ayniqsa bugungi kunda guruhdagi tarbiyalanuvchilarning soniga asosan tarbiyachilarga oylik maosh to'lanishi ham ulardagi kasbiy so'nishga olib keladi. Ya'ni hozirda face control tizimida davomat olinib unga ko'ra tarbiyachilarga ish haqqi to'lanishi ta'kidlab o'tilmoqda.

Bundan holatlar tarbiyachilarga salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Natijada ularning psixologik jihatidan toliqish sababli boshqaruvchanlikni yo'qotgan holda bolalarga tazyiq bilan muomalada bo'lish ehtimoli yuqori sanaladi.

Ana shunday vaziyatlarga duch kelmaslik uchun profilaktika ishlari ham olib borilishi muhim hisoblanadi. Rahbariyat tarafidan tarbiyachilarni qayta o'qitish, malaka oshirish va o'z ustida ishlab rivojlanishiga bir qancha motivatsiya, rag'batlantirish, ishonch va muhit yarata berishi ham ijtimoiy muammolar kamayishiga hamda vaqt davomida batamom tark etishiga ko'mak beradi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Quyida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun amaliy va samarali tavsiyalar keltirilgan:⁷

1. Bolaga mehr va hurmat bilan yondashing
Har bir bolani shaxs sifatida qabul qiling
Uni kamsitmang, solishtirmang
Ijobiy muhit yarating
2. Yosh va individual xususiyatlarni hisobga oling
Har bir bola turlicha rivojlanadi
Qobiliyat va qiziqishlariga qarab yondashing
3. O'yin orqali o'qitishni kuchaytiring
Didaktik o'yinlardan foydalaning
Rol o'yinlari orqali bolani rivojlantiring
O'yin — bu bolalar uchun asosiy o'rganish usuli
4. To'g'ri muloqot qiling
Muloyim, tushunarli tilda gapiring
Bolani diqqat bilan tinglang
Baqirmang, qo'rqitmang
5. Zo'ravonlikdan butunlay voz keching
Jismoniy yoki ruhiy bosim ishlatmang
Jazolash o'rniga tushuntirish usulini qo'llang
6. Ota-onalar bilan hamkorlik qiling
Doimiy aloqada bo'ling
Bola rivoji haqida fikr almashing
Muammolarni birgalikda hal qiling
7. O'z ustingizda ishleng
Malaka oshiring
Yangi metodlarni o'rganing
Kitob va tajribalardan foydalaning
8. Stressni boshqaring
Ish va shaxsiy hayotni muvozanatda tuting
Charchoqni kamaytirishga harakat qiling
9. Rag'batlantirishni unutmang
Bolani maqtang va qo'llab-quvvatlang
Kichik yutuqlarni ham e'tirof eting

Yaxshi tarbiyachi — bu nafaqat bilim beruvchi, balki bolaga mehr, ishonch va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi insondir. Shu maqsad yo'lida har bir pedagog tarbiyachi o'z bilim, ko'nikma, malakalarini oshirib, rivojlanib, har bir tarbiyalanuvchilarga mazkur qonun-qoidalar bilan muomala madaniyatini joriy qilishi darkor. Shu yo'sinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy muammolar ya'ni zo'ravonlik, kasbiy stress, kasbiy so'nish kabi holatlar bartaraf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Federation of Social Workers
2. UNICEF
3. World Health Organization

⁷ UNICEF

4. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni
5. Maktabgacha ta'lim vazirligi
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
7. UNICEF